



LEGAL AND ETHICAL ISSUES OF ENSURING HUMAN RIGHTS IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Gavharoy Kavulova

Student

Fergana State University

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: artificial intelligence, human rights, algorithmic bias, data privacy, ethical issues, legal regulation, labor market.

Received: 01.05.26

Accepted: 01.05.26

Published: 01.05.26

Abstract: This article examines the legal and ethical challenges of ensuring human rights in the context of the rapid development of artificial intelligence technologies. Particular attention is paid to issues such as algorithmic bias, data privacy, accountability, and the impact on labor rights. The study highlights both the opportunities and potential risks that artificial intelligence poses to human rights. Furthermore, it emphasizes the need to improve legal frameworks and ethical principles for regulating artificial intelligence.

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA INSON HUQUQLARI TA'MINLASHNING HUQUQIY VA AHLOQIY MUAMMOLARI

Gavharoy Qavulova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, inson huquqlari, algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma'lumotlar, etik muammolar, huquqiy tartibga solish, mehnat bozori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy va axloqiy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, javobgarlik masalalari hamda mehnat huquqlariga ta'sir kabi muhim jihatlar yoritiladi. Tadqiqot davomida sun'iy

intellektning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning inson huquqlariga potensial tahdidlari ham asoslab beriladi. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy mexanizmlar va etik tamoyillarni takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

ПРАВОВЫЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Гавхарой Қавулова

Студентка Ферганский государственный университет

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: искусственный интеллект, права человека, алгоритмическая предвзятость, персональные данные, этические проблемы, правовое регулирование, рынок труда.

Аннотация: В данной статье анализируются правовые и этические проблемы обеспечения прав человека в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется таким вопросам, как алгоритмическая предвзятость, защита персональных данных, проблемы ответственности, а также влияние на трудовые права. В ходе исследования раскрываются как положительные возможности искусственного интеллекта, так и потенциальные риски для прав человека. Кроме того, подчеркивается необходимость совершенствования правовых механизмов и этических принципов регулирования данной сферы.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) tizimlarining tez sur'atlarda rivojlanishi insoniyat hayotida tub burilish yasadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt turli sohalarda — ishlab chiqarish, tibbiyot, ta'lim, huquq, moliya va boshqaruv tizimlarida keng qo'llanilib, jarayonlarni samarali va tezkor tashkil etishga xizmat qilmoqda. Inson mehnati yengillashib, qaror qabul qilish jarayonlari ham avtomatlashtirilmoqda. Biroq, ushbu texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, muhim ijtimoiy, huquqiy va etik masalalar ham yuzaga chiqmoqda. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, algoritmik adolatsizlik, inson erkinliklari va tenglik tamoyillariga ta'sir kabi muammolar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida inson huquqlarini himoya qilish, ularni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda etik me'yorlarni ishlab chiqish zamon talabiga aylanmoqda.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tizimlari inson faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirishi, mehnat jarayonlarini avtomatlashtirishi va samaradorlikni oshirishi bilan birga, ayrim holatlarda shaxsiy erkinlik, tenglik hamda adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1]. Ayniqsa, algoritmik qaror qabul qilish tizimlarida kuzatiladigan noaniqliklar, ma'lumotlardagi nomutanosiblik va dasturiy tarafkashlik muammolari inson huquqlarining buzilishiga sabab bo'lish ehtimolini kuchaytiradi. Bunday holatlar fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishiga to'sqinlik qilishi, ayrim ijtimoiy guruhlarning kamsitilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanishda nafaqat texnik samaradorlik, balki huquqiy va etik me'yorlarga rioya etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa algoritmlarning shaffofligi, javobgarlik mexanizmlari va inson nazorati tamoyillarini kuchaytirishni talab etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – sun'iy intellekt rivojlanishi sharoitida inson huquqlarining huquqiy va etik muammolarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Sun'iy intellekt va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda tobora keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu soha nafaqat texnologik rivojlanish, balki huquqiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Xususan, o'zbek tadqiqotchisi R. Baxronov sun'iy intellektning tezkor rivojlanishi inson huquqlariga oid tushunchalarning yangicha talqin qilinishini talab etishini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, hozirgi mavjud huquqiy normalar va mexanizmlar sun'iy intellekt tizimlarining murakkab tuzilmasi, qaror qabul qilish jarayonidagi avtomatlashuv hamda ma'lumotlarga asoslangan ishlash tamoyillarini to'liq qamrab ololmaydi. Shu sababli yangi huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish, algoritmik shaffoflikni ta'minlash hamda inson huquqlarini himoya qilishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ilmiy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligini talab etadi.

Shuningdek, S. Abdurazaqova sun'iy intellektning mehnat bozori va ijtimoiy tenglikka ta'sirini o'rganar ekan, avtomatlashtirish jarayoni ayrim kasblarning qisqarishi yoki butunlay yo'qolishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa bevosita insonning mehnat qilish huquqi va iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi [2]. Tahlil: ushbu yondashuv SI texnologiyalarining ijtimoiy oqibatlari faqat texnik emas, balki inson huquqlari darajasida ham baholanishi kerakligini

ko'rsatadi. I. Abdulazizov esa huquqiy tizimda sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan etik muammolarga e'tibor qaratadi. U algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasizligi hamda javobgarlik mexanizmlarining noaniqligini asosiy xavf omillari sifatida ko'rsatadi [3]. Tahlil: bu fikr SI tizimlarida huquqiy javobgarlikni aniq belgilash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xalqaro ilmiy manbalarda esa sun'iy intellekt etikasi shaffoflik, adolat, mas'uliyat va maxfiylik tamoyillariga tayangan holda rivojlanishi kerakligi qayd etiladi. Tadqiqotlar ushbu tamoyillar SI tizimlarining ishonchli ishlashi uchun asosiy mezon ekanligini tasdiqlaydi [4]. Tahlil: bu yondashuv global miqyosda yagona etik standartlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, A. Ergashev sun'iy intellektning intellektual mulk huquqlariga ta'sirini tahlil qilib, SI tomonidan yaratilgan mahsulotlarga nisbatan mualliflik huquqi masalasi hanuzgacha to'liq huquqiy yechimga ega emasligini qayd etadi [5]. Tahlil: bu holat raqamli ijod mahsulotlarini huquqiy tartibga solish dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt tizimlarining keng qo'llanilishi inson huquqlari bilan bog'liq bir qator muammolarni yuzaga keltiradi:

Sun'iy intellekt (SI) tizimlari o'zining samarali ishlashi uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tahlil qilishga tayanadi. Ushbu jarayonlar natijasida turli manbalardan olingan shaxsiy ma'lumotlar bir tizimda jamlanadi va qayta ishlanadi. Bunday holat, o'z navbatida, ma'lumotlarning xavfsizligi bilan bog'liq bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, shaxsiy axborotlarning ruxsatsiz oshkor bo'lishi, uchinchi tomonlar tomonidan noqonuniy foydalanilishi yoki ma'lumotlar bazalariga kirish xavfi ortib boradi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarining qaysi maqsadlarda yig'ilayotgani, qanday algoritmlar orqali qayta ishlanayotgani hamda kimlar tomonidan foydalanilayotganidan to'liq xabardor emas. Bu esa "axborot simmetriyasi" muammosini yuzaga keltiradi, ya'ni foydalanuvchi va tizim o'rtasida ma'lumotlar bo'yicha tenglik yo'qligini anglatadi. Natijada, shaxsiy hayot daxlsizligi tamoyiliga putur yetishi mumkin. Shu sababli SI tizimlarida ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda foydalanuvchilarga aniq va tushunarli axborot berish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, raqamli savodxonlikni oshirish ham ushbu muammoni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt tizimlari amaliyotda qaror qabul qilish jarayonlarida yuqori tezlik va aniqlikni ta'minlashi bilan birga, ayrim hollarda muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlariga nisbatan adolatsiz yondashuvlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, ishga qabul

qilish, kredit ajratish, sud yoki ta'lim tizimidagi avtomatlashtirilgan qarorlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada insonlarning teng huquqliligi va kamsitilmaslik prinsipi buzilish xavfi paydo bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, sun'iy intellekt algoritmlari inson tomonidan yaratilgani, o'qitiladigan ma'lumotlar esa real jamiyatdagi tarixiy va ijtimoiy nomutanosibliklarni o'zida aks ettirgani sababli, ushbu tarafkashliklar tizim ichiga ham singib ketadi [4]. Shu bois algoritmlar "neytral" vosita sifatida emas, balki inson omili ta'siridan xoli bo'lmagan murakkab texnologik tizim sifatida baholanishi lozim. Bundan tashqari, SI qarorlarining shaffof emasligi ham muammoni chuqurlashtiradi, chunki foydalanuvchi nima sababdan aynan shu natija chiqqanini tushunmasligi mumkin. Shu sababli algoritmik adolatni ta'minlash, ma'lumotlar bazasini balanslash hamda muntazam audit tizimlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.[4] Sun'iy intellektidagi tarafkashlik muammosi faqat texnik emas, balki ijtimoiy muammo hamdir. Uni bartaraf etish uchun ishlab chiquvchilar, huquqshunoslar va jamiyat birgalikda ishlashi zarur.

Sun'iy intellekt tizimlari tobora ko'proq qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilayotgan bugungi sharoitda ularning xatoliklari natijasida yuzaga keladigan huquqiy mas'uliyat masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyotda SI noto'g'ri yoki salbiy oqibatlariga olib keluvchi qaror qabul qilgan hollarda, javobgarlikni aniq bir subyektga yuklash murakkab masalaga aylanadi. Chunki bunday tizimlar bir necha bosqichda – dasturchilar, ma'lumot yetkazib beruvchilar, algoritm ishlab chiquvchilar va yakuniy foydalanuvchilar ishtirokida shakllanadi. Shu sababli xatolik qayerda va kimning ta'siri ostida yuzaga kelganini aniqlash har doim ham oson emas. Natijada huquqiy tizimda javobgarlikning aniqligi va adolatliligi bilan bog'liq bo'shliq paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda ishlab chiquvchilar javobgar deb topilishi mumkin, boshqa vaziyatlarda esa tizimdan foydalangan tashkilot yoki shaxs mas'ul hisoblanadi. Biroq bu yondashuvlar har doim ham aniq mezonlarga asoslanmagan. Shu bois sun'iy intellektga oid maxsus huquqiy normalarni ishlab chiqish, javobgarlik chegaralarini aniq belgilash va xalqaro standartlarni joriy etish zaruriyatga aylanmoqda. Aks holda, texnologik taraqqiyot huquqiy noaniqlik bilan birga rivojlanishi mumkin. [3] Javobgarlik masalasi aniq belgilanmasa, sun'iy intellektga bo'lgan ishonch pasayadi. Shuning uchun "AI liability" bo'yicha maxsus qonunlar ishlab chiqilishi eng muhim vazifalardan biridir.

Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ko'plab jarayonlar inson omilisiz, ya'ni mashinalar va algoritmlar yordamida bajarilmoqda. Bu esa ayrim kasblarga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga, ba'zi yo'nalishlarning esa

butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, ilgari barqaror daromad manbai bo'lgan ish o'rinlari qisqarib, bir qator xodimlar yangi sharoitga moslashishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, past malakali mehnat turlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, yuqori texnologik sohalarda yangi kasblar paydo bo'layotgan bo'lsa-da, ularni egallash uchun maxsus bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bu holat jamiyatda iqtisodiy tafovutlarning kengayishiga olib kelishi mumkin. Mehnat huquqi nuqtayi nazaridan esa har bir insonning munosib ish bilan ta'minlanish imkoniyati masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli avtomatlashtirish jarayonlari faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki ijtimoiy adolat mezonlari asosida ham baholanishi lozim. [2]. Avtomatlashtirishni to'xtatish mumkin emas, lekin uning salbiy ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lishi kerak. Buning uchun qayta tayyorlash kurslari, raqamli savodxonlikni oshirish va yangi kasblarga moslashuv dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Aks holda, texnologik taraqqiyot ijtimoiy tengsizlikni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilayotgan mahsulotlar – matnlar, tasvirlar, musiqa asarlari yoki dasturiy yechimlar – zamonaviy huquq tizimi oldiga yangi savollarni qo'yimoqda. Eng muhim masalalardan biri shundaki, bunday mahsulotlarning muallifi kim deb tan olinishi kerakligi hanuz aniq belgilab qo'yilmagan. An'anaviy mualliflik huquqi tizimi inson ijodiga asoslangan bo'lib, unda yaratuvchi subyekt sifatida faqat inson e'tirof etiladi. Biroq sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan kontentda insonning roli ba'zan cheklangan yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Masalan, dasturchi tizimni yaratadi, foydalanuvchi unga topshiriq beradi, ammo yakuniy mahsulotni algoritm generatsiya qiladi. Shunday vaziyatda mualliflik huquqini kimga berish kerakligi masalasi murakkablashadi.

Xulosa. Yuqoridagi natijalar sun'iy intellektning inson huquqlariga ta'siri murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Bir tomondan, SI inson hayotini yengillashtiradi, samaradorlikni oshiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tomondan esa, u inson huquqlariga tahdid soluvchi omilga aylanishi mumkin.

Masalan, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi masalasida davlatlar o'rtasida turli yondashuvlar mavjud. Yevropa Ittifoqida qat'iy nazorat mexanizmlari joriy etilgan bo'lsa, ayrim davlatlarda bu soha hali yetarlicha tartibga solinmagan.

Shuningdek, etik muammolarni hal qilish faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda jamiyatning axloqiy qadriyatlari, madaniyati va texnologiyaga bo'lgan munosabati ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston misolida qaralganda, mamlakatda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, bu sohada dastlabki huquqiy asoslar yaratilmoqda [6]. Biroq, inson huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan yanada mukammal normativ-huquqiy bazani shakllantirish zarur.

Sun’iy intellekt zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, uning rivojlanishi inson huquqlari bilan bog‘liq yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI tizimlarining rivojlanishi:

- shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid soladi;
- tenglik va adolat tamoyillariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin;
- huquqiy javobgarlik masalalarini murakkablashtiradi;
- mehnat bozorida yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, sun’iy intellektning izchil va barqaror rivojlanishi faqatgina texnologik imkoniyatlar kengayishi bilan belgilanmaydi. Bu jarayon, eng avvalo, inson huquqlarining qay darajada ta’minlanayotgani bilan uzviy bog‘liqdir. Agar yangi texnologiyalar inson manfaatlariga xizmat qilsa, u holda ularning jamiyatdagi o‘rni mustahkamlanadi. Aksincha, inson erkinliklari, shaxsiy hayot daxlsizligi yoki tenglik tamoyillari e’tibordan chetda qolsa, texnologik taraqqiyot ijtimoiy muammolarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu bois sun’iy intellektni rivojlantirish jarayonida faqat innovatsion yutuqlarga emas, balki uning ijtimoiy va huquqiy oqibatlariga ham jiddiy e’tibor qaratish zarur. Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni kuchaytirish, etik tamoyillarni amaliyotga joriy etish va texnologiyalardan foydalanishda mas’uliyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina sun’iy intellekt jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hissa qo‘shuvchi vositaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxronov, R. Sun’iy intellekt va inson huquqlari: nazariy va huquqiy asoslar. – Toshkent, 2025. – 145 b.
2. Abdurazaqova, S.R. Sun’iy intellekt va mehnat bozori. – Toshkent, 2025. – 132 b.
3. Abdulazizov, I.B. Sun’iy intellektning etik muammolari. – Toshkent, 2025. – 118 b.
4. Jobin, A., Ienca, M., Vayena, E. The global landscape of AI ethics guidelines. *Nature Machine Intelligence*. – 2019. – Vol. 1. – pp. 389–399.
5. Ergashev, A. Sun’iy intellekt va intellektual mulk huquqi. – Toshkent, 2024. – 156 b.
5. Floridi, L., Cowls, J. A unified framework of five principles for AI in society. *Harvard Data Science Review*. – 2019. – Vol. 1. – No. 1. – pp. 1–15.

6. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Harlow: Pearson Education, 2021. – 1152 p.

7. United Nations. The Age of Digital Interdependence: Report of the UN High-Level Panel on Digital Cooperation. – New York, 2019. – 125 p.

8. European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy AI. – Brussels, 2019. – 41 p.

9. Taddeo, M., Floridi, L. How AI can be a force for good. Science. – 2018. – Vol. 361. – No. 6404. – pp. 751–752.